

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA

O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti

7-14 guruh talabasi Sattarov Ixtiyorning

„O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi”

fanidan tayyorlagan

REFERAT

Tayyorladi: I Sattarov

Qabul qildi: Fayzullayeva O

GULISTON - 2016

Mavzu: Atoiy lirik merosi

Reja:

- 1.Kirish
- 2.Atoiy lirikasining mavzular ko'lam.
- 3.Atoiy lirikasida obrazlilik.
- 4.Atoiy lirikasida badiiy mahorat.
- 5.Xulosa.

XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan turkigo'y shoirlar adabiyot, san'at va madaniyatni boyitishga munosib hissa qo'shishgan. Alisher Navoyining ijodiy takomili, yuksak cho'qqiga ko'tarilishida ularning barakali ta'siri bo'lgan. O'z zamonasida mashxur bo'lgan bu davr shoirlaridan Lutfiy, Haydar Xorazmiy. Sakkokiy, Gadoyi va boshqalar qatori Mavlono Atoiy ham o'zbek g'azalchilik taraqqiyotiga, badiiy so'z san'ati ravnaqiga qo'shgan hissasi e'tiborga loyiqdir.

Biz Atoiy nomini asosan, Alisher Navoiyning "Majolisun nafois" hamda "Muxokamat-ul lug'atayn" asralari orqali bilardik, Atoiyning zamondoshi bo'lgan Yusuf Amiriy ham uning nomini "O'q va yoy" munozarasida tilga olib o'tadi. 1927 yilda rus sharqshunosi A.N.Samoyilovich Atoiy devonini topib, shoir haqida maqola e'lon qilgan. Shundan keyin A.Fitrat, H.Zarif, E.Rustamov, Oybek, N.Mallaev, E.Ahmadxo'jaev va boshqalar ham shoir haqida tadqiqotlarini e'lon qildilar.

1948 yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi" ning I tomida Atoiy haqida qisqacha ma'lumot berilib, jumladan shunday deyiladi: "Atoiy Balx shaxridan bo'lib, qaysi yilda tug'ilib, qachon vafot etgani ma'lum emas. Uni Ulug'bek saltanatining so'nggi davrida va Abdullatif saroyida (XV asrining birinchi yarmida) yashab ijod etgan deb qaraydilar. Biroq Temuriylar saroyidagi shoirlarni juda yaxshi bilgan German Vamberi (Vengriyalik mashxur sayyoh lingvist, olim) Atoiyi tilga olmaydi...

Vaholanki, shoir o'z g'azallaridan birida aytadi:

"Yuz Atoiy o'lgay erdi nozaninlar zulmidin,

Bo'lmasa adli shahanshoh zoda xon Abdullatif".

Atoiy — shoir. Yas-saviy avlodidan. Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Turkiy, fors va arab adabiyotlarini chuqur o'rgangan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy ("Majolis un-nafois") A. hayoti va ijodi haqida to'xtalib, "Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota far-zandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O'z zamonida she'ri atrok (turkiy tilda so'zlovchilar) orasida ko'p shuhrat tutti. Bu matla' aningdurkim:Ul sanamkim suv

yaqrsinda paritek 760o‘lturur, G‘oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo‘lur....Mavlono ko‘p turkona (sodda, ra-von) aytur erdi...", deydi. Navoiy "Nasoim ul-mahabba min shamoim ilfu-tuvva" ("Muhabbat shabadalari") asa-rida Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o‘g‘li ekanini aytadi. A. devonining muqovasida va qo‘lyozmaning oxirida "Devoni Shayxzo-da Atoyi" deb qayd etilishi ham A.ni shayxlar oilasidan kelib chiqan deyishga asos beradi. Navoiyning xabar berishi-cha, A. Ulug‘bek saroyi shoirlari orasida ham bo‘lgan. A. g‘azalnavis — lirik shoirdir. Uning g‘azallarida muhabbat mavzui b-n bir qatorda may ham kuylanadi. Mayda hayot zavqi, uning barcha go‘zalliklari va lazatlari vasf etiladi. May A.da Umar Xayyom ruboiylari va Hofiz g‘azallaridagi kabi hayot timsolidir. A. lirikasida xalq iboralari, ta‘birlar, maqol va matallar, ertak mavzulariga oid so‘zlar ko‘p. G‘azallarini asosan aruzning ramal bahrida yozgan; vazni yengil, misralari qisqa, so‘zlari oddiy, uslubi sodda va ravon. Shuning uchun ham uning she‘rlari xalq qo‘shiqclariga aylanib ketgan. A. tajohuli orifona, laf va nashr kabi tasvir vosita va usullari ham yaratgan. Shoir ijodi bizgacha to‘la yetib kelmagan. Devonining taxminan 16- asrda ko‘chirilgan, 260 g‘azalni o‘z ichiga olgan qo‘lyozma nus-xasi Sankt-Peterburgda saqlanadi. Atoiy (15-asr, Balx) — shoir. Yassaviy avlodidan. Samarqand, Buxoro va Balxda yashagan. Turkiy, fors va arab adabiyotlarini chuqur o‘rgangan. Turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy («Majolis un-nafois») Atoiy hayoti va ijodi haqida to‘xtalib, «Mavlono Atoiy Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O‘z zamonida she‘ri atrok (turkiy tilda so‘zlovchilar) orasida ko‘p shuhrat tutti

...Mavlono ko‘p turkona (sodda, ravon) aytur erdi...», deydi. Navoiy «Nasoimul-mahabba min shamoil il-futuvva» («Muhabbat shabadalari») asarida Ismoil ota Ahmad Yassaviyning inisi Ibrohim otaning o‘g‘li ekanini aytadi.

Atoiy devonining muqovasida va qo‘lyozmaning oxirida «Devoni Shayxzoda Atoyi» deb qayd etilishi ham Atoiy shayxlar oilasidan kelib chiqan deyishga asos beradi. Navoiyning xabar berishicha, Atoiy Ulug‘bek saroyi shoirlari orasida ham bo‘lgan.

Atoiy g‘azalnavis — lirik shoirdir. Uning g‘azallarida muhabbat mavzui bilan bir qatorda may ham kuylanadi. Mayda hayot zavqi, uning barcha go‘zalliklari va lazatlari vasf etiladi. May Atoiyda Umar Xayyom ruboiylari va Hofiz g‘azallaridagi kabi hayot timsolidir.

Atoiy lirikasida xalq iboralari, ta‘birlar, maqol va matallar, ertak mavzulariga oid so‘zlar ko‘p. G‘azallarini asosan aruzning ramal bahrida yozgan; vazni yengil, misralari qisqa, so‘zlari oddiy, uslubi sodda va ravon. Shuning uchun ham uning she‘rlari xalq qo‘shiqclariga aylanib ketgan. Atoiy tajohuli orifona, laf va nashr kabi

tasvir vosita va usullari ham yaratgan. Shoir ijodi bizgacha to'la yetib kelmagan. Devonining taxminan 16-asrda ko'chirilgan, 260 g'azalni o'z ichiga olgan qo'lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi.

1959 yilda nashr etilgan 4 tomlik "O'zbek adabiyoti"ning 1 tomida esa quyidagi ma'lumotni o'qiydiz. "Atoiy ijodining barq urgan davri XV asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. U bu davrni Samarqand, Hirot va Balxda o'tkazgan. Atoiy Toshkent bilan Sayram oralig'idagi bir qishloqdan bo'lib, nasab jihatdan Ahmad Yassaviy qarindoshi Ismoil ota avlodlaridan bo'lganligini so'zlaydilar, Shoir taxallusining Atoiy bo'lishi ham uning yassaviy tariqatini elga yoyuvchi so'fiylardan - ya'ni Mansur ota, Zangi ota, Sulaymon Hakim ota, Anbar ota, Ibrohim ota kabi mutasavvuf otalar (atolar oilasidan va guruxidan chiqqanligini tasdiqlaydi". Shu o'rinda tasdiq ma'nosida quyidagi baytni keltiriladi:

"Tunokun bir faylasufi oqili ko'rgan kishi,

Ilg'oy olmaydur bukun majnuni shaydodin meni"

Bizningcha, shoirning nasl-nasabini aniqlashda bu misolga suyanib bo'lmaydi. O'zining miskin va g'arib holidan shikoyat tarzidagi bu kabi misollarni boshqa shoirlar ijodidan ham keltirish mumkin.

Darslikda esa "Atoiy Balxdami, Hirotdami, qaerda yashamasin, ... faqirona hayot kechirdi" deyiladi xolos. Demak, Atoiyning qayerda tug'ilganligini, qaerda muqim yashab ijod qilganini hozircha aniq-oydin aytib bo'lmaydi.

Shoir taxallusi borasida ham turli munozaralar va taxminlar mavjud. "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi"da "Atoiy" (1948) "O'zbek adabiyoti " kitobida "Atoiy", N. Mallaevning "Adabiyot tarixi" darslik kitobida esa "Atoiy" tarizida berilgan. (G'afur G'ulomning "Atoiy mi Otoyimi? " maqoslasi).

Bu o'rinda ham shoirning o'ziga murojaat qilish mumkin:

"Desangkim " jon sipar qilg`il Otoyim!"

Turub men, ushmutaq to`ldir, ot, oyim!"

Shoir taxallusi xususida so`z ketganla yana uning o`z ijodiga murojaat qilish mumkin. Shoir o`zining

" Ey oftob zarra yuzung to`lup oyidin

Boshimga goya qil qaro zulfung xudoyidin"

matla`si bilan boshlanuvchi g`azalida o`z taxallusini "Otoyim" shaklida qo`llaydi. Qofiyalarga nazar solamiz: Gadoyidin, saroyidin, chiroyidin, yoyidin, poyidin va nihoyat, Otoyidin"

Atoiyning taxallusiga aniqlik kiritishning katta ahamiyati bor. Sababi, har gal shoir asari yoki u haqda maqola e`lon qilinganda taxallusi har xil tilga olinadi. "O`zbek adabiyoti bo`stoni" seriyasida chop etilgan "Hayot vasfi" nomli kitobda "Atoiy" tarzida, "Klassik adabiyot janrlari" seriyasidagi "G`azal bo`stoni" nomli to`plamda (tuzuvchi Yoqubjon Is`hoqov, 1988) "Otoyi" tarzida, Subutoy Dolimov qalamiga mansub "O`zbek adabiyoti darslari metodik qo`llanmada" "Atoiy" va xokazo tarzda qo`llaniladi. Demak, bu borada hamon bir to`xtamga kelingani yo`q.

Yosh tadqiqotchi, filologiya fanlari nomzodi Sayfiddin Rafiddinov Atoiyning lirik maxorati va g`oyaviy motivlari tadqiq etuvchi nomzodlik dissertatsiyasini ximoya qildi. Unda shoir ijodiga hos xususiyatlarni yangicha nuqtai nazardan talqin etish bilan birga shoir taxallusi borasida ham munosazalarlarga munosabat bildiradi.

Atoiy haqida Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" asarida quyidagi ma`lumotni uchratamiz: "Mavlolno Atoiy Balxda bulur erdi, Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvant. xushxulq, munbasit (quvnoq) kishi erdi. O`z zamonida she`ri atrok (turkiy tilda yozuvchilar (so`zlovchilar) orasida shuhrat tutti. Bu matlab aningdurkim:

"Ul sanamkim suv yaqosinda partitek o`lturur,
G`oyati nozuklikidan suv bila yutsa bo`lur.

Qofiyada aybg`inasi bor. Ammo Mavlono ko`p turkona (sodda) aytur erdi.
Qofiya ehtiyojig`a muqayyad emas erdi. Qabri Balx navohisidadur".

Navoiyning "Nasoimul-muhabbat" asarida Ismoil ota haqida quyidagi ma`lumotlarga duch kelamiz: .... Ismoil ota.... zoxiran .. Xo`ja Axmad Yassaviyning Ibroxim ota ismli inisining o`g`lidir..." Husayn Voiz Koshifiy esa o`zining "Rashahot" asarida Ismoil otaning Xuziyonda (Toshkent bilan Sayram o`rtasidagi qadimgi viloyat) tug`ilgani va Ahmad Yassaviy tasavvuf oqimining davomchisi bo`lganligini aytadi.

Nasl-nasabi nuqtai nazaridan Ahmad Yassaviy avlodidan bo`lgan Otoy tasavvuf targ`ibotchilari izidan bormadi. Aksincha, dunyoviy ishlar bilan shug`ullanib, Navoiy ta`biri bilan aytganda xushxulq va munbasit kishi bo`lib yetishdi. Atrok orasida o`zining yoqimli lirikasi, dunyoviy ruhdagi ijodi bilan shuhrat qozondi.

Atoiy ijodi bilan tanishar ekanmiz, uning otalar izidan bormaganligiga misollar uchratishimiz mumkin. Masalan:

Tasavvufta, umuman, islom dinida shunday aqida bor.

Kishi vafot etgach, u qabrda munkarnakir savollariga javob berishi kerak. Bu savollar quyidagicha bo`ladi.

- Kimning millatidansan?
- Ibrohim Xalillulloning
- Qaysi dindasan?
- Ibroxim Xalillulloxa izdoshman.
- Aytganlaringga shahodat keltir.
- (Kalimai shahodat).

Endi Atoiyga murojaat qilamiz:

... Hajringda begim, oh degumdir dog`i o`lgum,

Yod aylagil ey shox, degumdir. dog`i o`lgum.

Oxir dam agar arza qil iymon desalar, men,

Imoni o`shal mox degumdir, dog`i o`lgum.

So`rsa malakulmavt: "Senga xur kerak?" deb

Yo`q-yo`q manga dilhol degumdir, dag`i o`lgum

Mazkur she`rida shoir o`z qarashlarini xulosalar ekan, yana shunday deydi:

Jannatdakim, el onda bo`lur zindan jovid.

Sensiz oni g`amgox degumdir, dog`i o`lgum.

Istiqlol sharofati bilan biz adabiy merosga biryoqlama munosabatda bo`lishdan qutuldik. Atoiy ijodini ham boshqa ko`plab so`z san`atkorlari qatorida xolis o`rganishga kirishdik. Xususan. uning she`riyatida barq urib turuvchi, komil insonlikka da`vat bilan sug`orilgan g`oyalarni to`g`ri talqin eta boshladik.

Agar xuru pari bo`lsa kerakmas.

Manga ey jon, bu kun dilxox sen-sen

singari mirsalar zamirida "sof dunyoviylik" emas, balki komil insonning haq rizoligi yo`lidani izxori dili ham ekanligini ayon ko`rinib turibdi.

Atoiy ham o`zi davrining farzandi. To`g`ri, biz unga o`z davri

adabiyotiga nimalar berganligi, she`riyatni qanday usul va vositalar bilan boyitganligi. eng yaxshi an`analarga qay darajada turtki berganligiga qarab ham baho beramiz. Ammo uning ijodidagi ba`zan bir-biriga zid qarashlar, murakkabliklar haqida so`z ketganda, u o`zi mansub bo`lgan muhitdan juda uzoqlashib keta olmaganligini unutmasligimiz kerak.

Shoir ijodini ko`zdan kechirar ekanmiz, u o`z zamonasining yetuk san`atkorlaridan biri bo`lganligiga ishonch xosil qilamiz. U o`z zamondoshlari va undan oldin o`tgan so`z ustalarini ham baxsga tortadi. Bu holni uning quyidagi misralaridan ham his etishimiz mumkin.

Otoyi she`rining lutfini bilsa,

"Latofatnoma" dan kechgay Xo`jandiy.

Yoki:

Bitsam bo`lg`ay nasihatnomalar yuz "Panj Ganj"

O`zga qilmas Xisravu Shirin daxonimdin ko`ngul..."

Shunga o`xshash misollardan ko`rinadiki, shoir o`z zamonasining yetuk san`atkorlari ijodidan bahramand bo`lgan, o`zigacha yashab, o`zbek, fors-tojik, arab tilida ijod qilgan adiblar merosini qunt bilan o`rgangan.

Atoiy yashagan davr o`zaro toj-taxt talashishlar, nizolar bilan to`la bir davr edi. Shoxruh Mirzoning o`limidan so`ng qonli to`qnashuvlardan Movarounnahr va Xuroson notinch edi. Ulug`bekning taxtga kelishi bilan nizolar birmuncha bartaraf bo`ldi. Samarqand ulkan madaniy markazga aylandi. Agar Otoyining tarjimai holiga oid taxminlarga suyanadigan bo`lsak, uning ijodi ayni mana shu davrda gullab yashnadi. O`zidan so`ng ajoiyb adabiy meros qoldirishga muyassar bo`ldi.

Bizga Atoiyning yagona qo`lyozmasi ma`lum. U ham bo`lsa Sankt-Peterburgda saqlanayotgan taxminan XVI asrlarda ko`chirilgan qo`lyozmadir. Bu qo`lyozma devoni Atoiyning 260 g`azalini o`z ichiga olgan.

Shoir ijodining ommabop va hammabopligini hisobga olgan holda 1948 yilda chop etilgan "O`zbek adabiyoti xrestomatiyasi"ga 15 ta, 1959 yili 84 ta hamda yaqinda nashr etilgan "Hayot vasfi" kitobiga 168 ta g`azali kiritilgan.

Umuman, Atoiyning, tarjimai holi xususida quyidagilarni xulosa tarzida bayon etish mumkin:

Atoiy qayerda va qachon tug'ilganligi, asl ismi noma'lum. Uning nasl-nasabi mashhur shayxlar-Ismoil ota, Ibrohim ota, Ahmad Yassaviylarga borib taqaladi. Atoiyning Samarqand, Toshkent, Turkiston shaharlarida yashaganligi, yashagan bo'lsa qancha muddat turganligi aniq emas.

Atoiyning taxallusi hozirda Atoyi, Atoiy, Otoyi, Otoiy tarzida har xil yozib kelinmoqda. Bularning qaysi to'g'ri ekanligi matbuotda jiddiy munozaralarga olib keldi. Ko'plab bahslar, munozaralarga bu so'zning o'zagi, qo'shimchalari haqida fikr yuritildi. Olimlarimiz Atoiy shaklida tadbiq etish va atash haqiqatga muvofiq deb hisoblamoqdalar.

Atoiy g'azallari devonda tartib bilan joylashtirilgan. Shoir lirik merosining umumiy hajmi 1718 bayt-3436 misrani tashkil etadi. 5 baytli g'azallar -58 ta, olti baytli g'azallar -6 ta, etti baytli g'azallar -187 ta, 9 baytli g'azallar -8 ta, 11 baytli g'azallar -1 ta. Atoiy g'azallarining 109 tasi ramali musammani maqsur vaznida yozilgan.

XV asr birinchi yarmida ko'plab shoirlar qatori Atoiy ham turkiy g'azalchilikning rivojlanishiga munosib ulush qo'shdi. Bu davrda ham g'azal janri etakchilik qildi. Shoir g'azallari mavzu jihatdan rang-barang. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Oshiqona g'azallar.

Diniy-tasavvufiy g'azallar.

Peyzaj xarakteridagi g'azallar.

Sharq lirikasida ishq-muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan bo'lib kelgan. Atoiy g'azallarining ham bosh g'oyasi va asosiy ohanglarini ishq va u bilan bog'liq kechinmalar tashkil etadi. Shoir ta'biricha, ishq «gavhari qimmatbaho», «azaliy hidoyat»dir. Atoiy g'azallarida faqat dunyoviy ishq va u bilan bog'liq kechinmalargina kuylangan emas. Haqiqiy ishq kuylangan g'azallar ham bor. Shoir haqiqiy ishqni kuylaganda go'zallik, hayot, koinot, inson haqida fikr yuritib, ularni ta'riflaydi va ulug'laydi. Shoir hayo, umrning o'tkinchi, g'animatligini ta'kidlaydi.

Atoiy gʻazallarida majoz va haqiqat oʻziga xos tarzda uygʻunlashadi. Majozda oshiq va maʼshuqlar haqiqiy insonlar boʻlib, ularning bir-biriga muhabbat izhori, oshiq iztiroblari, maʼshuqning tashqi va ichki goʻzalligi, xarakter hususiyatlari hayotiy tarzda gavdalanadi. Ishqi haqiqiyda esa, oshiqning ilohiy visolga intilishi, murshid va muridlik munosabatlari, faqru fanolik, oshiqni kamolga etkaradigan turli vositalar, soʻfiyona axloq kuylanadi. Atoyini baʼzi gʻazallarida maʼjoziy ishq, baʼzilarida sof ilohiy ishq, ayrim gʻazallarda majoziy ishq bilan haqiqiy ishq qorishib tasvirlanadi. Shoirning ilohiy ishq vaf etilgan gʻazallari majoziy mazmundagi gʻazallaridan ohangi, obrazlari, mazmuni bilan farq qiladi. Bunday gʻazallardagi «xol», «zulf», «gul», «bulbul», «raqib», «may», «mayxona», «dilbar», «husn», «shohid», «oshiq», «maʼshuq» kabi obrazlar oʻzgacha maʼno kasb etadi.

Atoiyning:

Har necha boʻlsa yorda kibru anovu martabat,
Bandadin olida hamin faqru niyozu maskanat...

Ulki derlar jumlai olamda gʻolib husn erur,
Muntaxoyi vosili matlubu tolib husn erur...

Ayoqing tuprogʻi birla qasamkim,
Manga sensiz pari qaysi, sanam kim?-

deb boshlanuvchi uch gʻazali tasavvufiy gʻazallar sifatida talqin etiladi. Ayrim gʻazallarning esa baʼzi baytlari shu ruhda.

Jannatda gar tajallii husningni koʻrmasam
Kavsar suvi sugʻolsinu ham hur boʻlmasin.

Oshiq maʼshuqasi sifatini beradi. Uning goʻzalligini ulugʻlaydi. Goʻzal nozu ishvasi bilan goʻzal:

Diloromeki nozu sheva bilmas,
Daraxtedurki, hech bargu bari yoʻq.

Vafo haqida Atoiy ko‘p yozadi:

Vafosiz dilrabodin Tengri bezor

Agar husn ichra jannat huri bo‘lsa.

Atoiy g‘oyaviy-badiiy niyati, falsafiy mushohadalari va ishqiy kechinmalari tabiat tasviri, bahor va uning jozibakorligi bilan bog‘lab tasvirlaydi. Bahorning so‘limligi, gul, bulbul, g‘uncha, bo‘ston, soqiy, sarv bodi sabo, mayi gulgun, bog‘, rayhon, sunbul, savsan, qizil gul, nargis kabi poetik obrazlar shoir maqsadini ifodalashga xizmat qiladi.

Atoiy lirikasi badiiy tasvir vositalarining ko‘p qo‘llanganligi bilan ham xarakterlanadi. Bunda juda ko‘p an‘anaviy obrazlar, mifologik obrazlar, payg‘ambarlar obraz lari ko‘zga tashlanadi. Ma’shuqa, oshiq o‘zlarining turli sifatlari bilan pariga, Xizrga, Yusuf, Ya‘qub, Farhod, Shirin, Iso, Ayyub va boshqa obrazlarga qiyoslanadi. Atoiy juda ko‘p ma‘naviy va lafziy san‘atlardan ham foydalangan. Iyhom, tajohuli orif, talmeh, tamsil, lafu nashr, mubolog‘a, tashbeh, Luo‘z kabi ma‘naviy san‘atlar, takror, tardi aks, tarse, tajnis, ishtiyoq kabi lafziy san‘atlar shular jumlasidandir. Iyhomga misol:

Ne shirin o‘o‘ridur og‘zing olib ko‘nglumni to‘yguncha,

Yoshundi har necha so‘rsam, topilmas infiolindin.

Tajohuli orif:

Mengiz yo ravzai rizvonmudur bu?

Og‘iz yo g‘unchai xandonmudur bu?

Mubolag‘a:

Firoqingda ko‘zum sarchashmasindin,

Qilurman har qayon boqsam tengizlar.

Umuman, Atoiy she‘riyati xalqimiz tomonidan sevib o‘qilaveradi.

Sharq lirikasida ishq-muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan bo'lib kelgan. Atoiy g'azallarining ham bosh g'oyasi va asosiy ohanglarini ishq va u bilan bog'liq kechinmalar tashkil etadi. Shoir ta'biricha, ishq «gavhari qimmatbaho», «azaliy hidoyat»dir. Atoiy g'azallarida faqat dunyoviy ishq va u bilan bog'liq kechinmalargina kuylangan emas. Haqiqiy ishq kuylangan g'azallar ham bor. Shoir haqiqiy ishqni kuylaganda go'zallik, hayot, koinot, inson haqida fikr yuritib, ularni ta'riflaydi va ulug'laydi. Shoir hayo, umrning o'tkinchi, g'animatligini ta'kidlaydi. Atoiy g'azallarida majoz va haqiqat o'ziga xos tarzda uyg'unlashadi. Majozda oshiq va ma'shuqlar haqiqiy insonlar bo'lib, ularning bir-biriga muhabbat izhori, oshiq iztiroblari, ma'shuqning tashqi va ichki go'zalligi, xarakter hususiyatlari hayotiy tarzda gavdalanadi. Ishqi haqiqiyda esa, oshiqning ilohiy visolga intilishi, murshid va muridlik munosabatlari, faqru fanolik, oshiqni kamolga etkaradigan turli vositalar, so'fiyona axloq kuylanadi. Atoiy ba'zi g'azallarida ma'juziy ishq, ba'zilarida sof ilohiy ishq, ayrim g'azallarda majoziy ishq bilan haqiqiy ishq qorishib tasvirlanadi. Shoirning ilohiy ishq vasf etilgan g'azallari majoziy mazmundagi g'azallaridan ohangi, obrazlari, mazmuni bilan farq qiladi. Bunday g'azallardagi «xol», «zulf», «gul», «bulbul», «raqib», «may», «mayxona», «dilbar», «husn», «shohid», «oshiq», «ma'shuq» kabi obrazlar o'zgacha ma'no kasb etadi. Umuman, Atoiy she'riyati xalqimiz tomonidan sevib o'qilaveradi Atoiyning hayoti va faoliyati haqida uning o'z devoni va Alisher Navoiyning ayrim asarlarida ba'zi ma'lumotlar bor.

Alisher Navoiy «Majolisun-nafois»da mana bunday deydi: «Mavlono Atoiy Balxda bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash va xushhulq,

munbasit kishi erdi. O`z zamonida she`ri atrok orasida ko`p shuhrat tutdi. Bu matla`aningdurkim:

Yuqorida nomi zikr etilgan Ismoil ota haqida Navoiy «Nasoyimul-muhabbat»da quyidagicha yozadi: «Ismoil ota ... zohiran Xuja Ahmad Yassaviy ... ning Ibrohim ota otlig inisining o`g`lidir... Yoshi yuzga yaqin va avlodi o`n yetti yo o`n sakkiz bor erdi. Avlodi orasidin Ishoq otani o`z qoyim maqomi qilib olamdan o`tibdur ...» Husayn Voiz Koshifiy «Rashohot» asarida Ismoil otaning Xuziyonda (Toshkent bilan Sayram O`rtasidagi qadimgi viloyat) tug`ilgani va Ahmad Yassaviyning tasavvuf oqimini davom ettiruvchilardan bo`lganini aytadi.

Bizga Atoiy devoning yagona qo`l yozma sifatidagi nusxasi ma`lum. Bu qo`lyozma Atoiyning jami 260 g`azalini o`z ichiga oladi. Biroq Atoiy g`azallarining soni bundan ko`p bo`lgan bo`lishi va shoir lirik turning boshqa janrlarida ham she`rlar bitib, ularni devonga kiritgan bo`lishi, lekin bu she`rlar bizgacha yetib kelgan qo`lyozmaga kirmagan bo`lishi mumkin. Ammo shunga qaramay, devonning mavjud qo`lyozmasi ham Atoiyning o`zbek dunyoviy lirikasining iste`dodli va zakovatli yirik bir vakili sifatida gavdalantiradi.

Atoiy g`azallarida dunyoviy sevgini kuylaydi, tabiat ko`rki va insonning fazilatlarini ta`rif va tavsif qiladi, tarkidunyochilik va badbinlikka qarshi kurashadi, xilma-xil badiiy lavxalar va obrazlar yaratadi. Xalq og`zaki ijodi boyliklaridan va yozma adabiyot tajribalaridan foydalanadi, sodda, ravon, jo`shqin va nafis baytlar tizadi:

Kel, ey dilbar, ki bo`ston vaqti bo`ldi,

Gul ochildi, guliston vaqti bo`ldi.

Qilay nola, boqib guldek yuzingga,

Chu bulbullarga afg`on vaqti bo`ldi...

Uqub gul baxtini majlisda har dam,

Bo`lub sarxush, gul afshon vaqti bo`ldi...

Mug`annilarga bulbullar bikin zor,

Hazonon nav`i ilhon vaqti bo`ldi.

Bu damkim, gul qilur bulbulga altof,

Atoiyga ham ehson vaqti bo`ldi.

Atoiy g`azal janrining ustoz san`atkorlaridandir.

Atoiyning ko`pchilik g`azallari, boshqa o`zbek klassik shoirlariniki singari, 7 baytli g`azallardir. Atoiyning g`azallari orasida «Ul sanamkim suv yaqosinda paritek ulturur», «Jamoling vasfini qildim chamanda» va «Bu xusnu malohatki bizning yorda bordur» kabi bir necha voqeaband g`azallar ham bor.

Atoiyning g`azallari ramal, hazaj va boshqa bahrlarda yaratilgan. Devonidagi 260 g`azaldan 109 tasi, akademik A.Samoylovich ta`kidlaganidek, romali musammani maqsur (foilotun failotun failotun failun) vaznida bitilgan. Bu baxr o`zbek klassik poeziyasida juda keng tarqalgan bo`lib, «turkiy» deb yutilgan o`zbek xalq qo`shiqlari shu bahrda ijod qilingan.

Mumtoz she`riyatda g`azal janrining taraqqiyotiga hissa qo`shgan shoir. Balx shahrida yashagan, yassaviylik tariqati shayxlaridan Ismoil otaning o`g`li. Mirzo Ulug`bek saroyga bir qancha shoir va olimlarni taklif etganda, ular orasida Atoyi ham bor edi.

Bizgacha birgina devoni ma`lum, unda shoirning 260 g`azali jamlangan, u Rossiya FA Sankt–Peterburg bo`limida saqlanadi (inv.22 V-2456).

Atoiy xalq she`riyatida g`azal janri yetakchilik qiladi, ularning aksariyati tasavvufiy ruhda. Til va uslub jihatidan xalq ijodiga yaqin bo`lib, xalq iboralari, ta`birlari, maqollariga boyligi bilan ajralib turadi. Bu omillar shoir g`azallarining xalqchilligini ta`minlagan.

XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan turkigo'y shoirlardan biri Shayxzoda Atoiydir. Atoiy haqida A.Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolisun-nafois" asarlarida ma'lumot berilgan. Shoir bilan zamondosh bo'lgan Yusuf Amiriy ham "O'q va yoy" munozarasida Atoiy nomini tilga oladi. 1927-yilda rus sharqshunosi A.Navoiy Saloylovich Atoiy devonini topib, shoir haqida yirik maqola e'lon qildiradi. Ana shundan keyin shoir ijodiga qiziqish kuchayib, tadqiq etila boshlandi.

Mavloni Atoiydan bizgacha 260 ta turkiy g'azalni o'z ichiga olgan yagona devon yetib kelgan. Shoir ijodiga birinchi bo'lib Navoiy xolis baho beradi. U "Majolis un-nafois" da "Ul sanamkim, suv qirog'inda paridek o'lturur, G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur", baytini keltirib, qofiyasida aybg'inasi bor. Ammo mavloni ko'p turkona aytur erdi. Qofiya ehtiyotig'a muqayyad ermas erdi", deydi.

Atoiy devoni asosan mustaqil baytlardan tuzilgan g'azallardan tashkil topgan. G'azallar mavzusi quyidagicha:

- a) oshiqona;
- b) diniy-tasavvufiy;
- v) peyzaj xarakteridagi g'azallar.

Sharq lirikasida ishq muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan bo'lib kelgan. Atoiy g'azallarining ham bosh g'oyasi va asosiy ohanglarini shu va u bilan bog'liq fikru tuyg'ular tashkil etadi. Ishq bilan bog'liq har qanday holat mushkul ishlardanda mushkulroq:

Zinhor ishq ishini o'sal tutma, ey kungul,

Osoni mushkul erur aning mushkulottin.

Shoir lirikadagi ishqiy g'azallarda insoniy muhabbat, hayotning, umrning g'animatligi, shirinligi bilan birga majoz, so'fiyona obrazlar orqali ilohiy ishq tarannum etilgan.

Atoiyning g'azallarida diniy-tasavvufiy tushunchalar turli ramz va majozlar vositasida ifoda etilgan.

Atoiy devoni shunday bayt bilan boshlangan:

Eyki xo'blar ko'zgusinda o'zin izhor aylagan.

Ham o`zi ko`zguga boqib meni zor aylagan.

Ushbu baytdagi “xo`blar ko`zgusi” istioraviy ibora bo`lib, 2 xil ma`noni anglatadi.

a) yaxshi kishilar, komil insonlar yoki komil insonlar yuzi, qalbi. Ko`zguning tasavvufda ham ma`nosi bor. Allohning zot, sifat va ismlarini izhor qilganligi uchun insonga ko`zgu deb qaraydilar va bunday ko`zgu bo`lish xususiyati komil insonga xosdir.

Lirik qahramon ilohiy sifatga sohib bunday kishiga oshiqi zordir. Zero, u ana shunday shaxsda ilohiy jamolni mushohada etadi hamda bunday kishi orqali tasavvufda kamolot hosil qiladi.

b) Xo`blar ko`zgusi-borliqdagi barcha go`zal ashyolarning zamirida yotuvchi ilohiy mohiyat va buyuk qudratdir. Lirik qahramon zohir narsalar botinida ilohiy ma`rifatni ko`radi, uni tevarak-atrofdagi ashyolarda jilva ko`rguzgan haq jamoliyatining partavi, ulug` bir san`atkorlik maftun etib, “oshiqi zor” iga aylantirgan.

Bunday misollarni shoir she`riyatidan ko`plab keltirish mumkin. Umuman, Atoiy diniy va tasavvufiy aqidalarni tasvirlash bilan birga insonning insonga bo`lgan muhabbatini, visol va hijronni, insonning yashashga bo`lgan ehtiyoji va ruhiy hayoti bilan bog`liq turli xil muammolarni qalamga oladi.

Atoiy g`oyaviy-badiiy niyati, falsafiy mushohadalari va ishqiy kechinmalarini tabiat tasviri, undagi ashyolarning sirru sinoati, rivojlanish bosqichi, ayniqsa, bahor va uning go`zalligi, jozibakorligi bilan bog`lab tasvirlaydi. Uning ko`p g`azallarida tabiat bilan bog`liq ruhiy kechinmalari, mushohadalar va samimiy shoirona tasvirlarni uchratamiz.

“Soqiyo, keltur qadahkim, bo`ldi vaqti gul latif”

Yoki

“Kel, ey dilbar, ki bo`ston vaqti bo`ldi”-

“Bahor o`ldi, kel ey gulruh, gulistonlar sari keza” misralari bilan boshlanuvchi g`azallarida oshiqona ruhiy holatlardan ko`ra tabiat tasviri, bahor tarovati kishi diqqatini ko`proq jalb etadi.

Atoiyning bir qancha alohida baytlarida tabiat bilan bog`liq kechinmalarning muqoyasaviy, yonma-yon tasvirlari uchraydi. Bunday tasvirlar orqali shoir yangi mazmun, esda qoladigan obrazli lavhalar yaratadi:

Yig`lab yuzingizdin olayin zulf niqobin,

Gul yaxshi ochilmas, kechalar yog`masa yomg`ur.

Yoki

Bandi zulfingni parishon ayla qoshing olida,

Kim, yangi oy ko`zga ravshanroq ko`runur kechqurun.

Shoirning tabiatga samimiy munosabati kitobxonning estetik zavqini tarbiyalab, his-tuyg`ulariga ta`sir etadi. Uning yorga, diyorga bo`lgan muhabbatini yanada oshiradi.

Xulosa:

Atoiy o'zbek dunyoviy adabiyotining Navoiyga qadar yetishgan atoqli namoyondalaridan biridir. U o'z badiiy ijodini, real hayotni, insonning insonga bo'lgan sevgisini kuylashga bag'ishladi, o'rta asr reaksiyasining eng chirkin illatlaridan bo'lgan tarkidunyochilik va badbinlikka qarshi shavqatsiz kurashdi. Biroq, Navoiy ta'kidlagandek, Atoiy ba'zi o'rinlarda qofiyaga yetarli e'tibor bermaydi, och qofiyalar ishlatadi. Shunday qilib, Atoiy sevgini inson hayoti va faoliyatining muhim bir xosiyati va sharti, hayotga bo'lgan muhabbat ifodasi sifatida kuylaydi.

Atoiy o'zidan oldingi atoqli so'z sa'natkorlari bilan ijodiy musobaqa qildi va ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi. Atoiy deyarli dunyoviy sevgi temasi bilan chegaralanib qoldi, u ba'zan yashagan muhitning ijtimoiy voqeliklari haqida fikr yuritisa ham, ularni yetakchi mavzu qilib olmadi. Bu Atoiy ijodining badiiy qimmatiga ham ma'lum darajada salbiy ta'sir etdi. Biroq, shunga qaramay, Atoiy ijodi o'zbek dunyoviy adabiyotining taraqqiyotida progressive hodisa bo'ldi va Navoiy kabi ulug' san'atkorning yetishuviga ma'lum darajada zamin tayyorladi.

Hayotni sevgan va shodlik-quvnoqlik izlagan, insofsiz va razil kishilarning jirkanch kirdikorlarini ko'rib qattiq eziladi, qayg'uradi. Turli xil alam va mashaqqatlar „faylasufu oqil“ shoirni „majnuni shaydo“ holiga keltirdi. U nafis va dilrabo she'rlar bitdi, lirik devon yaratib qoldirdi. Bu qimmatli adabiyotlar hali ham sevib o'qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.N.M.Mallaev. O`zbek adabiyoga tarixi. 1-kitob. T.: 1976 y.

2.O`zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr. 5 tomlik. 1-tom. T.:1977 y.

3.Lutfiy. Sensan sevarim. T,; 1987 y.

4.S.Erkinov. Lutfiy hayoti va ijodi. Fan. T.: 1965 y.

5.Rasulov X. Lutfiyning voqeaband va yakpora g`azallari xususida.
"O`zbek tili va adabiyoti" 1981 y. 1-son. «O`ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI»
fanidan muammoli ma`ruza matni

6. www.ziynet.uz